2034-yilga qadar biopolimer plyonkalari jahon bozori 14 milliard dollargacha o‘sishi mumkin

// 16.09.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/2034-yilga-qadar-biopolimer-plyonkalari-jahon-bozori-14-mill



2024-yilda biopolimer plyonkalari jahon bozori hajmi 6,4 milliard dollarni tashkil etdi. Prognozlarga ko‘ra, u 2025-yilda 6,91 milliard dollardan 2034-yilga kelib 14 milliard dollargacha o‘sishi mumkin. Ushbu davr mobaynida o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 8,2%ni tashkil etadi, deya prognoz qilmoqda Precedence Research agentligi.

Osiyo-tinch okeani mintaqasi yetakchi pozitsiyani egallab, bozordagi ulushi 33%ni tashkil qilmoqda. Mintaqadagi asosiy ishtirokchi Yaponiya hisoblanadi. Agentlik joriy yilda Osiyo-tinch okeani mintaqasi bozorini 2,28 milliard dollarga baholagan. 2034-yilga kelib, u har yili o‘rtacha 8,36% ga oshib borishi hisobiga 4,71 milliard dollargacha o‘sishi mumkin.

Shimoliy Amerika esa qat’iy davlat nazorati va innovatsiyalar tufayli mazkur turdagi plyonkalar uchun eng tez o‘suvchi mintaqalardan biriga aylanishi kutilmoqda. Hozirda ushbu mintaqaning jahon bozoridagi ulushi 29% ni tashkil etadi. 24% ulush bilan Yevropa uchlikdan o‘rin olgan.

Lotin Amerikasi va Yaqin Sharq hamda Afrika davlatlarining bozordagi ulushi mos ravishda 9% va 5% ni tashkil etmoqda. Hisobotga ko‘ra, 2024-yilda material turlari bo‘yicha poliaktiddan tayyorlangan plyonkalar bozordagi eng katta ulush — 30%ni egallagan. Qo‘llash sohalari bo‘yicha esa qadoqlash segmenti 45%

bilan yetakchi bo‘ldi. Yakuniy iste’mol tarmoqlari orasida esa eng katta ulush, ya’ni 38% oziq-ovqat va ichimliklar segmentiga to‘g‘ri keldi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati